

**Buxoro Davlat Universiteti dotsenti
Bobojonova Feruza Hayatovna taqrizi
ostida**

D. A. Olimova
Buxoro davlat universiteti II bosqich
magistranti
Dilsoraolimova4@gmail.com

BUXORO MANG'IT AMIRLARINING SEVIMLI MASHG'ULOTLARI

ANNOTATSIYA: Ushbu ilmiy maqolada Buxoro amirligini boshqargan mang'it sulolasi (1753-1920-yillar) vakillarining diniy, siyosiy va ijtimoiy faoliyatidan tashqari kundalik hayotidagi mashg'ulotlari va qiziqishlari yoritib berilgan. Buni yoritishda esa mahalliy muarrixlar va boshqa millat vakillari tarixchilarining qimmatli esdaliklaridan foydalanilgan.

Kalit so'z: Ko'pkari, Sadriddin Ayniy, shaxmat, Abdulahadxon, Karmana, lochin ovi, Ahmad Donish.

АННОТАЦИЯ: В данной научной статье рассматриваются повседневная деятельность и интересы представителей династии Мангитов (1753-1920), правивших Бухарским эмиратом, а также их религиозная, политическая и общественная деятельность. Для выяснения этого вопроса были использованы ценные воспоминания местных историков и историков других национальностей.

Ключевые слова: Копкари, Садриддин Айний, шахматы, Абдулахадхан, Кармана, соколиная охота, Ахмад Дониш.

ANNOTATION: This scientific article covers the daily life activities and interests of the representatives of the Mangid dynasty (1753-1920), who ruled the Bukhara Emirate, in addition to their religious, political and social activities. In this coverage, valuable memoirs of local historians and historians of other nationalities were used.

Keywords: Kopkari, Sadriddin Ayniy, chess, Abdulahadkhan, Karmana, falconry, Ahmad Donish.

Kirish. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy tariximizni o'rganish doimo dolzarblik kasb etib kelgan va bu doimo rahbarlarimiz e'tibori va etirofida bo'lib kelmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1998- yilda bir guruh tarixchilar bilan bo'lgan uchrashuvda mamlakatimizning real tarixini o'rganish va uning haqqoniy versiyasini xalqqa taqdim qilish vazifasini yuklaydi.

Haqiqatan ham, bugungi kunga kelib, tarixchilarimizning salmoqli mehnati orqali xalqimizning sovet mafkurasidan xoli haqqoniy tarixi tiklanmoqda. Shu sababli biz endi o'z tariximizni bir qancha tarixiy manbalarni o'qib real baholay olishimiz mumkin. Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham salmoqli ishlarni amalga oshirmoqda. 2017-yil 30-iyunda " O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi qarori qabul qilingani ham fikrimizning yaqqol isbotidir.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. 18-asrdan boshlab Buxoro xonligi hududida yangi siyosiy kuch yuzaga keldi va natijada mamlakat dastlab " soxta xonlar" orqali boshqariladigan, so'ngra esa rasman amir maqomini olgan yangi sulola mang'itlar qo'l ostiga

o'tdi. Ushbu ilmiy maqolaning asosiy tadqiqot obyekti ushbu sulola vakillari tomonidan xayrixohlik ko'rsatilgan maishiy o'yinlardir.

Maqolada umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy- mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolisilik, tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, azaldan Buxoro hududi O'rta Osiyo mintaqasida turli madaniyatlar kesishgan hudud sifatida alohida ahamiyatga ega. Ushbu ilmiy maqolada O.D. Chexovich va M.S. Andreev hammuallifligida yozilgan “Ark Buxari” asarining “ Buxoro amirlarining bir kuni “ bobidan , shuningdek, mahalliy muarrixlardan – Ahmad Donish, Sadridin Ayniy, Fitrat va boshqalarning asarlari ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Amirning bir qancha sevimli mashg'ulotlari bo'lgan. Masalan, shaxmat o'yini , “ tagaljangi “ , “ kòpkari” , xòroz urushtirish , lochin va bedana ovi shular jumlasidandir. Amir ertalab nahoridan sòng kimnidir shaxmat o'ynashga taklif etgan. Shaxmat o'yini qadimgi Sharqda haqiqiy shohlar o'yini sifatida ommalashgan. Abu Rayhon Beruniyning „Hindiston“, Abdurazzoq Samarqandiyning „Matlai sa'dayn va majmai bahrayn“, Alisher Navoiyning „Majolis unnafois“, „Lison uttayr“, Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ va boshqa tarixiy asarlarida shaxmatga oid qimmatli ma'lumotlar bor. Amir Temur davrida kuchli shatranjchilar Samarqandda to'planishgan. Hatto Tabrizlik Ali ash-Shatranjiy Samarqandda o'tkazilgan musobaqalar doimo g'olib chiqib , shatranj haqida kitob yozgan va unga o'zining va 14-asrgacha O'rta Osiyoda yashagan ko'plab oliynasab shaxmatchilar haqida ma'lumotlar kiritgan. Amir Temur bilan ham shatranj o'ynab turgan. Amir Temurning ham bu o'yinga ixlosi baland bo'lib , janglarga borar ekan albatta o'zi bilan shaxmat ustasini hamroh qilib olib borgan. Ba'zi tarixchilarning yozishicha, shaxmatda ruh bilan raqibini mot qilayotgan bir paytda o'gil farzandli bo'lgani xabari yetib keladi . Shuning uchun o'gliga Shoxrux deb ism qoyadi.

Man'gitlar amirlari ham bu o'yinda juda qobilyatli bo'lishgan. Amir Muzaffar ruslar bilan to'qnashuvda ularning kuchiga yetarli baho bermay chodirda shaxmat o'ynab o'tirgani va oxir – oxibat mag'lubiyat xabari yetganida shaxmatni va to'n- u sallalarini tashlab qochib ketganini Ahmad Donish o'z asarida juda yaxshi tasvirlab beradi. Bundaan tashqari, Abdulahadxon shaxmat o'yinida juda mohir bo'lgan . Ba'zilar qasddan “ amir hurmati “ uchun yutqazishmasa , Buxoroda amirga munosib raqib topilmagan. Ba'zida amir Jòyborxòjalardan Xòja Ahmadga yutqazib qozgan.

Amirning yana bir sevimli mashg'uloti lochin ovi bo'lgan. Amir saroyida har doim 10-12 lochin va boshqa ov qushlari bo'lgan. Umuman olganda, lochinchilik juda mashhur bo'lib, har bir hokim amirga taqlid qilib, hatto abdullaxon davrida yashagan mashhur o'zbeklardan biri bo'lgan mashhur jòyborxo'jalar ham o'zlariga lochinlar olishga harakat qilganlar. Lochinlar bilan ov qilish erta bahorda ikki oy davomida mashq qilingan, chunki keyinchalik qushlarning patlari issiqda tushib ketgan va ular urishganda havoga ko'tarilishni istamagan va faqat qisqa masofaga ucha olgan. Boshqa tomondan, bu vaqt ham tuxum qo'yish davriga to'g'ri , bu ham amirning buyrug'i bilan hisobga olingan. Kuzgi ov ham bor edi, lekin u qandaydir mashhur emas edi. Ov paytida lochinlar maxsus lochinchilar - "qushbon" nazorati ostida edi. Har ikki lochinga bitta lochinchi to'g'ri kelgan va u o'z uyida bu hayvonlarini boqardi. Ammo katta lochinni saqlash juda qimmatga tushgan, ayniqssa, bu qushlarga boqish kerak bo'lgan go'sht narxini hisobga olinganda.

Ovga kelgan amir o'zining ov qilishga odatlangan sevimli lochinini, maxsus qalin qo'lqop kiygan qo'lga olgan. Boshqa lochinlarni lochinchilar olib yurgan. Amir ham o'z mulozimlaridan bir necha kishini ovga olib kelgan.Odatda bular miroxòrboshi, xazinachi va buxchabardor edi. Amirning ko'rsatmasi bilan ba'zan o'zi tanlagan tòqsoba va qarovulbegilar ham mulozimlar safiga qo'shilganlar. Ov joyiga borish va qaytishda amirga homiylik polkidan 20 kazakdan iborat

karvon hamroh bo'lgan. Oldinda o'n kishi, orqada o'n kishi otlangan . Belgilangan yerga yetib kelgan so'nggi amir Olimxon otda o'tirmay, aravadan tushib, bir oz yurib, ko'l qirg'og'idan ov qilib, uchayotgan qushga lochinni tashlagan. Mulozimlardan taklif qilinganlar ham piyoda ergashganlar. Ularning ham har birining qo'liga lochin berilgan. Ular kòpincha òrdaklarni ovlashgan. Lekin kuzda amir ba'zan lochinlar bilan qirg'ovul ovlagan. Abdulahadxon otda ov qilishni ma'qul ko'rardi, garchi u tez-tez ov joyiga aravada yetib borib, keyin esa uni kutib turgan otga minib borardi. Amirning ov joylari kòpincha qishloq saroylaridan ajratilgan va u yerda amirdan boshqa hech kim ov qila olmas edi. 1,5-2 soatdan ko'p bo'lmagan va ko'pincha kamroq davom etadigan bitta ovda 20-50 ga yaqin òljani o'ldirish mumkin edi. Òljaning bir qismini amir ovda qatnashgan hamrohlariga bergan, lekin ko'p qismini oshxonaga jo'natib, kechki payt dasturxonga tortilgan. Qamish va baland o'tlarda yashiringan qirg'ovullarni ovlash kuz va qishda bo'lgan. Bu vaqtda qamishlar qurib qolganidan foydalanib, avvaliga qamish va o'tlarni yoqib, so'ngra olov to'xtagach, itlarga qirg'ovullarni qo'shni dalalarda mayin o't bilan qidirishga qo'yib, o'sha yerdan panohtopishgan. Amirlar hatto yirik ovlarda ham qurol bilan qushlarni ovlamaganlar.

Amirning yana bir eng sevimli òyini - echki bilan ot o'yini , ya'ni “kupkari” dir. Ushbu Markaziy Osiyoda keng tarqalgan va hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan bu o'yin nomining eski shakli “ko'kbo'ri” , ya'ni qadimgi davrning “Ko'ktangri” totemi bilan bog'lanadi. Ko'ktangri turkiy xalqlarda ilohlarning eng ulug'i va turkiy xalqlarga jang- u jadallarda zafar keltiruvchi, falokatlardan asrovchi va hoqonlarni taxtga chiqaruvchi hamda ularga “qut”(baraka) ato etuvchi deya talqin qilingan. Hoqonlar yer yuzida Ko'ktangrining vakillari deb qaralgan. Shuning uchun bo'lsa kerak turkiylarni anglatgan rang hamisha ko'k bo'lgan. Ikkinchi o'zak esa bo'ridir. Ma'lumki, qadimgi turkiylarning muqaddas hayvoni, ya'ni totemi – bo'ri bo'lgan. Qadimgi davrlardan beri bo'ri turkiylarning yo'l ko'rsatuvchi, aql va jasorat beruvchi, erkinlik va mustaqillikning ramzi sifatida qabul qilingan. Umumiy “ko'pkari “ atamasi “Tangribo'ri” degan ma'noni beradi.

Oltoyda yashagan turkiy qavmlarning bu o'yin paydo bo'lishi haqidagi falsafiy-mifologik qarashiga ko'ra, ko'kbo'ri o'yini chavandozlarining kuchi va quvvatini ko'rsatgan, bo'rilar galasiga o'xshagan insonlar guruhi ruhini anglatgan qadimiy sport turidir. Oltoyning qadimgi turkiylarida ko'kbo'ri nomi “muqaddas bo'ri – ona” ma'nosini beruvchi chuqur falsafiy anglash bilan bo'riga bo'lgan munosabatni bildiruvchi hamdir. [1]

Amirlar qadimda otlarni juda yaxshi ko'rgan va qadrlagan. Ayniqssa, Buxoro otlarining o'zining savlati bilan butun olamga dovuq qozongan. Hatto Buxorodan xorijga ot ham eksport qilingan. Bundan tashqari, buxoro otlari , ayniqssa, Rossiyaga yuborilgan qorabayir zoti 1914-yildagi birinchi jahon urushida o'zining eng yaxshi ot ekanligini isbotlaydi.[2]

Boshqa amirlar bilan bir qatorda Abdulahadxon ot sportini yoshlikdan juda sevib, u bilan muntazam shug'ullangan. Tez-tez shikorga chiqib turgan va amirlikning eng mashhur chavandozi hisoblangan. Ko'pkarilarda bevosita o'zi ot minib ishtirok etgan. Tarixiy manbalar guvohligiga qaraganda, hatto bir bor otdan yiqilib shikast xam topgan. Ayniqssa, Buxoroda o'tkaziladigan sayllarning ko'pchiligi ko'pkarisiz o'tmagan. Buxoroning Shirbudundagi amir saroyi atrofida bo'ladigan sayllarda 500 dan ortiq chodirlar tiklangan va ko'pkari bilan yakunlangan. Xuddi shunday tadbirlarni amir Abdulahadxon Karmanada o'tkazilishida xam alohida e'tibor bergan. Ayniqssa, Karmanada yashay boshlagan paytlari ko'pkarining shu mavzeda o'tkazilishi jarayonida o'zi ham ishtirok etgan. Ayrim boy xonadonlar farzandlarining to'ylarida amir Abdulahadxon ruxsati bilan ko'pkari o'tkazganlar. Shunday boylardan biri qorako'l teri savdosi bilan shug'ullangan Fayzulla Xo'jayevning otasi Ubaydullo Xuja, tog'asi Latif Xo'jalar qatorida turuvchi milloner boy Jo'rabek Arabov o'g'li Olimbekka atab o'tkazgan to'yi haqida “Dalekoe i blizkoe” kitobi muallifi L.I. Rempeli quyidagicha hikoya qilgan: “ Jo'rabek o'g'li Olimbek bilan

amir Abdulahadxonning rezidensiyasi Karmanaga 10 ta buxcha (buxchalarda zarbof to'nlari, zargarlik buyumlari, uch dasta Qorako'l teri (30 dona), besh dona qorako'l terining eng chiroyli turli xillaridan tikilgan shuba, Buxoro, G'ijduvon, Qarshining xolva va turli xildagi shirinliklari, pista, bodom, yong'oq, mayiz va boshqa xildagi quruq mevalar) bilan kirib keladi. Jo'rabek to'yning bir qismini, ayniqssa, ko'pkarini Karmanada o'tkazishga ijozat so'raydi. Jo'rabekning o'g'li Olimbekning sunnat to'yi Karmanada boshlanib, Buxoroda davom etadi. Karmanada tashkil etilgan to'yda ko'pkari uyushtirilib, amir Abdulahadxon ishtirok etadi. To'yda turli beklıklardan mehmonlar o'z otlari bilan qatnashadilar va o'n mingga yaqin haloyiq 10-12 kun mobaynida ko'pkarini tomosha etadilar “.

Amir Abdulahadxon davrida barcha shahar va tumanlarda bunday sayl, to'y-tomosha va ko'pkarilar uyushtirib turilgan.[3]

Ushbu o'yin bahor va kuzda o'tkazilgan. To'rt nafar dovrug'i butun Buxoroga yoyilgan chempionlari bo'lgan. Bular ulkan qaddi-qomatli Yoriqul, u asli qorako'llik, Murod palvon paykendlik, keyin vobkentlik Kali harof va buxoroda tug'ilgan Qodirqulbek. Ayniqssa, Yoriqul yerga tashlangan so'yilgan echki ustida egarlariga osilgan, to'plangan otliqlar orasida echkini tortib olish kerak bo'lgan paytlarda to'liq qo'rqqaslikni ko'rsatib, ajralib turardi. U qamchining yomg'irli zarbalariga qaramay o'zining kuchi tufayli echkini sug'urib olib, u bilan birga marraga yetib kelardi. Keyin echkini amir qarorgohiga yetkazib berayotgan Yoriqul chavandoz yuqoridan qayoqdandir qarasa, gavjum olomon orasidan chopib o'tib, qamchisini o'ngga va chapga urib, echkini yerga tashlab, otidan sakrab tushadi va uch marta ta'zim qiladi. Navbatchi mirzo ism-sharifini yozib, o'yin oxirida faxriy chopon kiydiradi.

Abdulahadxon va uning qo'l ostidagilar mashhur “ko'pkari” ot o'yinida ishtiyoq bilan mulohaza yuritishgan va qatnashishgan. Buxoro amirligining hukmron sulolasi – mang'itlarning ko'pkarida faol qatnashganliklarining sabablaridan biri shuki, ular o'zlarining harbiy tayanchi bo'lgan yarim ko'chmanchi o'zbeklarga yaqinligini ko'rsatgan. Ularning kuchi va boshqa tomondan, ularning ishtiroki bu o'yinning aholining qolgan qismi oldida obro'li maqomga ega bo'lishini ta'minlagan.[4]

Ushbu o'yin bahor va kuzda o'tkazilgan. To'rt nafar dovrug'i butun Buxoroga yoyilgan chempionlari bo'lgan. Bular ulkan qaddi-qomatli Yoriqul, u asli qorako'llik, Murod palvon paykendlik, keyin vobkentlik kali harof va buxoroda tug'ilgan Qodirqulbek. Ayniqssa, Yoriqul yerga tashlangan so'yilgan echki ustida egarlariga osilgan, to'plangan otliqlar orasida echkini tortib olish kerak bo'lgan paytlarda to'liq qo'rqqaslikni ko'rsatib, ajralib turardi. U qamchining yomg'irli zarbalariga qaramay o'zining kuchi tufayli echkini sug'urib olib, u bilan birga marraga yetib kelardi. Keyin echkini amir qarorgohiga yetkazib berayotgan Yoriqul chavandoz yuqoridan qayoqdandir qarasa, gavjum olomon orasidan chopib o'tib, qamchisini o'ngga va chapga urib, echkini yerga tashlab, otidan sakrab tushadi va uch marta ta'zim qiladi. Navbatchi mirzo ism-sharifini yozib, o'yin oxirida faxriy chopon kiydiradi.

Amirlarning yana bir sevimli mashg'uloti “ tagal jangi “ , ya'ni qo'shqor jangidir. Amirning yozgi saroyi Sitorayi Mohi Xosada bir qancha hayvonlar va qushlar saqlangan. Maxsus bo'limda bir nechta qo'chqorlar ham bo'lgan. Ular bir-biri bilan urushmasliklari uchun zanjirilar bilan bog'langan. Kuzda esa ularni bir – birlari bilan urushtirishgan. Buxoroliklar juda katta qiziqish bildirgan bu o'yinda qo'chqorlar shu dajajada beshavqat bo'lishganki, to'qnashganda bir- birlarining shoxlarini , hatto bosh suyaklarini sindirib tashlashgan. Bu tomosha buxoroda ham, o'rta osiyoning boshqa hududlarida ham qadimgi davrlarda katta o'yin-kulgu bo'lgan va hatto katta pul tikishgan. Havaskorlar esa qo'chqorlarni jangovar qilib tarbiyalashga juda katta kuch sarflashgan. Har kuni ularning peshonalariga tesha kabi kuchli jismlar bilan urishgan va natijada qo'chqorlar yoshligidan kuchli peshonaga ega bo'lib borishgan

va bu esa egasining kelajakdagi g'alabasini ta'minlagan. Hozirgi kunda ham Buxoroda bu o'yin juda mashhur. Buxoroda mavjud bo'lgan ko'p sonli qo'y zotlari orasida qorako'l qo'chqorlari va romitan qo'chqorlari alohida o'rin tutadi. Bu hayvonlar o'zlarining noyob jangovar qobiliyatlari va ta'sirchan jismoniy xususiyatlari bilan tanilgan, bu ularni qo'chqor janglarida tengsiz ishtirokchilarga aylantiradi.[5]

Xo'roz janglari ham Buxoro amirlariga juda katta qiziqish uyg'otgan. "Kulanti" zotidan maxsus ulkan jangovar xo'rozlar boqilgan. Bundan tashqari, donning pishishi davrida bedana janglari tashkil etilgan. Ularni ovlash, shuningdek, bedana janglari va yoqimli qo'shiqdek ovoz chiqarishi tufayli qafaslarda saqlash, ayniqssa, buxorolik oddiy odamlar orasida juda keng tarqalgan. Bedana boqish Buxoroda, Afg'oniston va Hindistonda mashhur bo'lgan.

Mang'it amirlarining yana bir sevimli mashg'uloti "dekchapazi" - palov tayyorlash musobaqasidir. Bu o'yin palovning O'rta Osiyodagi o'rni va ahamiyatining naqadar muhim ekanligini ko'rsatib beradi.

Palov so'zi fors tilidan olingan bo'lib, "qaynatilgan guruch", "guruch to'pi" degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu taomning paydo bo'lish tarixi miloddan avvalgi 3-2 – asrlarga borib taqaladi. Arab mashhur afsonalari jamlanmasi bo'lmish "Ming bir kecha" asarida uchraydi. Ushbu taom O'rta Osiyoga taxminan 9-10-asrlarda kirib kelgan va Ibn Sino haqidagi rivoyatga asoslantirilgan. Unga ko'ra Buxoro amirining o'g'li kambag'al bir hunarmandning qiziga oshiq bo'ladi va bu nikoh ilojsizligini tushunib kundan – kunga rangi zafaron bo'lib kasallanib qoladi. Shunda hukmdor Ibn Sinodan uni davolashini so'raydi. Ibn Sino esa kuch-quvvat beruvchi, lekin semirtmasdan faqatgina damlatadigan palov bilan uni davolaydi. Yoki boshqa rivoyatlarda Amir Temur o'zining ko'p sonli qo'shini bilan Anqaraga urushga otlanayotgan bir paytda ularga quvvat beruvchi taomni tayyorlashini oshpazlariga buyuradi. Ular esa ushbu taomni askarlarga tortiq etishadi va Amir Temur qo'shining misli ko'rilmagan g'alabalariga o'z hissalarini qo'shishadi.[6]

Amirlik xonadonida ham palovga juda katta e'tibor berilgan. Mazkur asarimizda ham amirning maxsus oshi doimo tayyor holda turishi kerakligi ta'kidlanib o'tilgan. Amirlarning palovga bo'lgan e'tiborini Sadriddin Ayniy ham o'z esdaliklarida shunday eslaydi: "...Uning aytishiga ko'ra, amir Abdulahad podsho bo'lganining uchinchi yilida bir odat chiqargan: bu odat bo'yicha, amir markaziy saroy — arkdan tashqari biron hovliga tushsa, u hovlining tevaragidagi madrasalardan palov so'rab olar ekan. Amirning bu buyrug'ini amalga oshirish uchun oshxona xodimlaridan biri madrasaga kirib: «Kimning tayyor palovi bo'lsa, janobi oliyning humoyun (muborak) oshxonalariga keltira bersin» deb chaqirar va hujralardan olib chiqilgan oshlarni qozoni bilan egasiga ko'tartirib, amirning oshxonasiga olib borar ekan. Unda bosh bakovul qozonlarni ochib boqib bittasini tanlar va boshqasini qaytarar ekan.

Bosh bakovul ma'qullagan oshni amirning tovog'iga suzib, bo'shagan qozonni oshxonadagi tayyor oshlardan to'ldirar va bundan boshqa amirning buyrug'iga muvofiq, qabul bo'lgan oshning egasiga o'n tanga — bir yarim so'm pul ham berilar ekan. Amirning bu odati Buxoro madrasalarining hammasiga ma'lum bo'lgani sababli, u qaysi hovligaki qo'nsa, u hovliga yaqin bo'lgan madrasalarning hamma hujralarida amirga qabul bo'lish umidida o'sha kecha palov pishirilgan ekan. U kecha amir Mir Arab madrasasiga yaqin bo'lgan bir hovliga qo'nganidan, bu madrasaning bir yuz qirq uch hujrasining hammasida osh damlangan, holbuki bu hujralarning bir qismida butun qish bo'yi biror marta ham osh damlamaydigan qashshoq talabalar turar ekanlar. Usha kecha shunday qashshoq mullabachchalar ham qassob va baqqoldan osh masalliqini nasyaga olib, osh damlabdilar ..." [7]

“Dekchapazi” o‘yiniga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu musobaqa mang‘itlarning so‘nggi amirlari davrida ,ayniqssa, avj olgan. Tejamkor amir sifatida talqin etilgan Abdulahadxon qishloq ahli orasidan musobaqaga atigi 8-10 tanlab taklif qilgan. Uning vorisi Olimxon esa atrofiga xushomadgo‘y mulozimlarni yig‘ib ikki baravar ko‘p mehmonlar bilan bu musobaqani uyushtirgan. Maxsus bo‘lim qo‘mondoni Ibrohimbek tomonidan 18 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan 15-20 kishini tanlab olib musobaqaga jo‘natgan. Amir ham bu ishda juda faol ishtirok etgan. Ba‘zida raqobatchilar bir – birlarining oshlariga ko‘p miqdorda tuz va zira solib, g‘alaba imkoniyatini yo‘qqa chiqarishgan. Chunki palav tayyor bo‘lgach, amirning yoniga o‘z oshlarini suzib laganda olib kelishgan hamda amir Olimxon tatib ko‘rganida unga ma‘qul tushsa bu oshpazni porloq istiqbol kutar edi. G‘olib ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘iy nazar amir tomonidan maxsus lavozimlar bilan siylanar edi.

Bu mashhur musobaqa to‘g‘risida Fitrat batafsil ma‘lumot beradi: “...Olimxon bog‘da bolalar bilan «dekchapazi» o‘yinini boshlar edi. Bu o‘yin quyidagicha - taxminan yigirmaga yaqin qozonchalarni amir huzuriga keltirib, shu qozonchalarga moslab qurdirgan o‘choqlarga qo‘yadilar (Mohi xossa chorbogida katta hovuz yonidagi qishlik gulxonalar yonida bu o‘choqlar hali ham bor). Har bir qozonning oldida zarur miqdorda go‘sht, guruch, sabzi, piyoz, o‘tin tayyorlab qo‘yishadi. Olimxon, yuqorida ta’rifi zikr etilgan bolalar bilan birga bo‘ladi va har kim bir qozonchani egallab palov pishirishga kirishishadi. Albatta, hurmatli o‘quvchilar har bir tirik jon osh pishirib yeydi, buning o‘yinga hech qanday dahli yo‘q, deb e’tiroz bildirishi mumkin. Lekin biz amir saroyida maxsus podshohlik oshxonasi mavjud bo‘lganligini ham bilamiz. U erda mohir oshpazlar har qanday sharq va g‘arb taomlarini istagan paytda pishirib, amirni manzur etar edilar. Bu ish shu darajada yo‘lga qo‘yilgan ediki, amir kecha-kunduzning istagan soatida ko‘ngli tilagan taomini yangi pishirilgan holda tanovul etar edi. Har qanday “ eskirgan “ taomni darrov chiqarib odamlarga berar edilar yoki to‘kib tashlar edilar. Xuddi o‘sha paytda yana bir qozon ovqat pishirilib, to‘kilishini kutib turishardi. ko‘pini qanchadan-qancha odamlar yeyishga topa olmagan bir paytda, ular esa, chiqarib yer bilan yakson etardilar. Shuning uchun bizning yuqorida zikr etgan «dekchapazi» haqidagi fikrimiz, bu mashg‘ulotning o‘yindan boshqa narsa emasligiga qanoat hosil qildiradi. Shunday qilib, amir ham bolalar qatori bir qozonchani egallab palov pishirishga kirishardi...” .[8]

Xulosa. Mang‘it amirlari ,ayniqssa, so‘nggi mang‘it amirlari bu kabi ko‘ngilochar o‘yinlarga haddan ortiq berilib ketishganligi sababli davlat ichki va tashqi siyosatiga sustkashliklar qilishgan. Natijasi esa Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyo hududini to‘liq egallanishi bo‘ldi. Garchi Abdulahadxon va uning vorisi Olimxon tomonidan ko‘ngilochar mashg‘ulotlardan tashqari, ilm – fan va qurilish ishlariga salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da , ammo vaziyat Amir Muzaffar davrida yetilib bo‘lgan edi. Hatto xalq yurtning tichligi va osoyishta hayotiga ishonishi uchun har kun saroyda bazm-u jamshid va ko‘ngilochar tomoshalar avj olgan.

Yana shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, amirlarning ko‘pkari, tagal, xo‘roz janglarining qo‘llab – quvvatlanishi bu kabi o‘yinlarimizning asrlar osha kelajak avlodlarimizga yetib kelishi va rivoj topishi uchun zamin yaratgan.

Foydalingan adabiyotlar

1. Kljashtornyj, S. G. (2006). Al-Bīrūnī’s Version of an Old Turkic Genealogical Legend. on the Semantics of Turkic Baraq. Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. Санкт-Петербург. Наука. 446-454.
2. Амир Саййид Олимхон. БУХОРО ХАЛҚИНИНГ ҲАСРАТИ ТАРИХИ. «ФАН» НАШРИЁТИ. ТОШКЕНТ— 1991. 18-b

3. С. Иноятов , Х. Тураев, О. Хайитова. Амир Абдулахад даврида Кармана. Шарк нашриёт матбаа аксиядорлик компанияси бош тахририятию. Тошкент - 2004. Б-34-35
4. Malikov, A. M. Kupkari Kak Element Gorodskoy İdentichnosti i Kulturi Samarkanda v XIX - Nachale XX v. Markaziy Osiyo Tarixi va Arxeologiyasi: An'analar, İnnovasiyalar va İstiqbollar Xalqaro İlmiy-Amaliy Anjuman Materiallari. Toshkent-2021. 448-451-b.
5. <https://www.uzbekbet.com/blog/uz/sport-tikish/ozbekistonda-qochqor-jangi-anana-va-mohiyati/>
6. Mahmudov K., O‘zbekcha palov, Toshkent – 1979.
7. Sadriddin_Ayniy._Asarlar._8_jildlik._5-jild._Esdaliklar - Т О Ш К Е Н Т. ЁЛДИЙ АДАБИЁТ НАШРИЁТИ - 1965 121_б.
8. Fitrat . Amir Olimxonning hukmronlik yillari. “Minxoj” Xayriya nashriyoti. Toshkent – 1992. 39-b